



THE ROLE OF SIBLING RELATIONSHIPS IN THE FAMILY IN THE FORMATION OF PERSONALITY

Dotsent **Odiljonova Aziza Abdusakimovna**

Andijan State University,

Master's student **Muslimakhon Ulugbek qizi Khoshimova**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548948>

ARTICLE INFO

Received: 28th October 2025

Accepted: 04th November 2025

Online: 05th November 2025

KEYWORDS

Sibling relationships, personality formation, social skills, emotional development, family structure, competition, collaboration, psychological well-being, parenting styles.

ABSTRACT

This article theoretically analyzes the impact sibling (sibling) relationships have on personality formation in a family. In child socialization, emotional maturity and interpersonal skills, the relationship between brothers is seen as an important factor. The paper analyzes the dynamics of sibling based on psychological theories, in particular Adler's individual psychological theory, Bandura's theory of social learning. It also looks at how family interactions are reflected in children's psychological health, emotional development, and social relationships.

РОЛЬ СИБЛИНГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Доцент АндГУ **Одилжонова Азиза Абдухакимовна**

магистрант **Хошимова Муслимахон Улугбек кизи**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548948>

ARTICLE INFO

Received: 28th October 2025

Accepted: 04th November 2025

Online: 05th November 2025

KEYWORDS

Сиблинг отношения, формирование личности, социальные коники, эмоциональное развитие, структура семьи, конкуренция, сотрудничество, психологическое здоровье, семейное воспитание.

ABSTRACT

В данной статье будет теоретически проанализировано влияние сиблинговых (братских, сестринских) отношений в семье на формирование личности. Отношения между братьями и сестрами рассматриваются как важный фактор в социализации ребенка, эмоциональной зрелости и навыках взаимодействия. В статье анализируются психологические теории, в частности, индивидуально-психологическая теория Адлера, динамика сиблинга на основе теории социального обучения Бандуры. Также рассматривается, как товарищеские отношения в семье отражаются на психологическом здоровье детей, эмоциональном развитии, и социальных отношениях.



SHAXS SHAKLLANISHIDA OILADA SIBLING MUNOSABATLARINING O'RNI

ADU dotsenti **Odiljonova Aziza Abduxakimovna**
magistrant **Xoshimova Muslimaxon Ulug'bek qizi**

muslimaxoshimova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548948>

ARTICLE INFO

Received: 28th October 2025

Accepted: 04th November 2025

Online: 05th November 2025

KEYWORDS

Sibling munosabatlari, shaxs shakllanishi, ijtimoiy ko'nikmalar, emotsional rivojlanish, oilaviy tuzilma, raqobat, hamkorlik, psixologik salomatlik, oilaviy tarbiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada oilada sibling (aka-uka, opa-singil) munosabatlarining shaxs shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri nazariy jihatdan tahlil etiladi. Bolaning ijtimoiylashuvi, emotsional yetukligi va o'zaro muloqot ko'nikmalarida birodarlar o'rtasidagi munosabatlar muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada psixologik nazariyalar, xususan, Adlarning individual psixologik nazariyasi, Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi asosida sibling dinamikasi tahlil qilinadi. Shuningdek, oiladagi o'rtoqliklarning bolalarning psixologik salomatligi, emotsional rivojlanishi, va ijtimoiy munosabatlarda qanday aks etishi ko'rib chiqiladi.

KIRISH

Oila- inson shaxsining shakllanishida birlamchi ijtimoiy institut bo'lib, unda bola o'zining xatti-harakatlari, qadriyatlarini va emotsional tajribasini o'rganadi. Odatda ota-ona bolaning tarbiyasida asosiy rol o'ynaydi, biroq birodarlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham shaxsning rivojida muhim ta'sir ko'rsatadi.

Har bir boa oilada tug'ilib, unda muloqot qilishni, his-tuyg'ularini boshqarishni, mehr va e'tiborni his etishni, shuningdek, jamiyat bilan o'zaro munosabatni o'rganadi. Shu jarayonda ota-onalar bilan bir qatorda aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ham insonning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida o'ta muhim o'rin tutadi. Sibling munosabatlari inson hayotining deyarli eng uzoq davom etadigan aloqalaridan biridir. Chunki ota-ona qarib, umrining oxiriga yetganda ham aka-uka, opa-singillar o'zaro bog'lanishda qoladilar, ularning o'zaro hissiy yaqinligi, bolalikdagi xotiralar, birgalikdagi kechinmalar- bularning barchasi shaxsning butun hayoti davomida o'z aksini topadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sog'lom sibling munosabatlari insonning o'ziga ishonchini mustahkamlaydi, ijtimoiy faolligini oshiradi va hissiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Aka-uka opa-singillar o'rtasidagi aloqalar o'z tabiatiga ko'ra juda murakkab: ular bir vaqtning o'zida ham raqobat, ham hamkorlik, ham muhabbat, ham nizo elementlarini o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan sibling munosabatlari o'zaro muloqot, sabr-toqat, bag'rikenglik va empatiya ko'nikmalarini shakllantiruvchi tabiiy "maktab" vazifasini bajaradi. Bolalik davrida aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar kopincha o'yinlar, raqobat, bo'lishish, bahs-munozaralar orqali shakllanadi va aynan shu tajribalar keyinchalik kattalar hayotidagi ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.



O'zbekiston jamiyatida sibling munosabatlari milliy mdaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir oilada "katta hurmati", "kichikka g'amxo'rlik" tamoyillari chuqur ildiz otgan. Kattalar kichiklarga namuna bo'lishi, ularga yo'l ko'rsatishi, kichiklar esa kattalarga hurmat bilan munosabatda bolishi milliy tarbiyaning asosiy qadriyatlaridan biridir. Shu sababli, O'zbekiston oilalaridagi sibling munosabatlari nafaqat shaxsiy, balki madaniy va axloqiy asosda ham shakllanadi.

Biroq so'nggi yillarda jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, urbanizatsiya, migratsiya, axborot texnologiyalarining keng kirib kelishi oilaviy tizimda ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Kichik oilalar sonining ortishi, ota-onalarning ish bilan bandligi, bolalarning gadjetlar va internet orqali muloqotga ko'proq vaqt ajratishi natijasida aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi bevosita hissiy aloqalar zaiflashmoqda. Bu esa ba'zan bolalar o'rtasida begonalashuv, individualizm yoki raqobatning haddan tashqari kuchayishiga olib kelmoqda.

Boshqa tomondan, zamonaviy oila modeli sibling munosabatlariga yangi imkoniyatlarni ham yaratmoqda. Masalan, oiladagi teng huquqli muhit, demokratik muloqot uslublari, bolalar fikrini inobatga olish kabi qadriyatlar aka-uka, opa-singillar o'rtasida o'zaro hurmat va do'stlikni yanada kuchaytirmoqda. Endilikda sibling aloqalari faqat an'anaviy "katta-kichik" tamoyiliga emas, balki shaxsiy mustaqillik, hissiy erkinlik va o'zaro qo'llab-quvvatlash asosiga ham qurilmoqda.

Psixologik jihatdan qaralganda, sibling munosabatlari bolaning o'zini anglashida, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishda, muloqot madaniyatini shakllantirishda va konfliktlarni konstruktiv hal etishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bu soha nafaqat oilaviy tarbiya masalasi, balki psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va hatto madaniyatshunoslik fanlari uchun ham keng tadqiqot maydonidir.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, sibling munosabatlarini o'rganish orqali nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatdagi ijtimoiy sog'lomlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. O'zbekiston tajribasi esabu borada o'ziga xos, chunki bu yerda oilaviy birlik, bir-biriga sadoqat va mehr kabi qadriyatlar hali ham kuchli saqlanib qolgan. Shu bois sibling munosabatlarni chuqur tahlil qilish orqali milliy qadriyatlar bilan zamonaviy psixologik yondashuvni uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oila inson hayotining ilk ijtimoiy muhiti bo'lib, unda bola shaxs sifatida shakllanadi va o'zini jamiyat a'zosi sifatida his eta boshlaydi. Alfred Adler ta'kidlaganidek: "Oila — bu bolaning birinchi ijtimoiy maktabidir, unda u muhabbat va raqobatni bir vaqtda o'rganadi" (Adler, 1927) [1] Bu fikr oiladagi har bir a'zoning, xususan, aka-uka va opa-singillarning o'zaro ta'sirini insoniy fazilatlarining shakllanishida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Sibling munosabatlari bolaning psixologik rivojlanishida o'ziga xos maktab bo'lib xizmat qiladi. Judy Dunn (1988) o'z tadqiqotlarida shunday xulosaga kelgan: "Aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar bolaning ijtimoiy hayotidagi eng uzoq davom etadigan aloqadir." [2] Demak, bu aloqalar bolaning emotsional tajribasini boyitadi, muloqot, sabr, bag'rikenglik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Susan McHale va Alan Crouter (1996) esa siblinglarning o'zaro rollarini quyidagicha izohlaydi: "Siblinglar bir-birining hayotida o'qituvchi, raqib, do'st va maslahatchi rolini bir vaqtda bajaradi." [3] Bu nuqtai nazar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tizimda har bir bola faqat ota-onadan emas, balki o'z tengdoshi — ya'ni ukasi yoki opasidan ham ijtimoiy tajriba oladi.

Gollandiyalik tadqiqotchi Katrien Buist (2013) shunday izohlaydi: "Sog'lom sibling munosabatlari bolada stressni kamaytiradi va hissiy muvozanatni saqlaydi." [4] Bundan ko'rinib turibdiki, boladagi hissiy barqarirlikni, stress va depressive holatni oldini olishga ko'mak bo'lishga tajriba bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, ijobiy sibling munosabatlari bolaning o'ziga ishonchi, ijtimoiy faolligi va emotsional muvozanatini mustahkamlaydi. Gregory H. Brody (2004) buni quyidagicha ta'riflaydi: "Siblinglar o'rtasidagi ijobiy aloqalar ijtimoiy moslashuvchanlik va o'ziga ishonchni mustahkamlaydi." [5] Shu sababli, oilada mehr, hamkorlik va muloqot muhitini yaratish, aka-uka va opa-singillar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish tarbiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Mahalliy tadqiqotlarda ham bu fikr o'z tasdig'ini topgan. Raximov (2021) ta'kidlaganidek, "O'zbek oilalarida aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi hissiy bog'liqlik milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda shakllanadi." [6] Bu jihat O'zbekiston oilalariga xos madaniy va ma'naviy qadriyatlarning psixologik tizimga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Umuman olganda, sibling munosabatlarining mohiyati oilaning ichki muloqot tizimi, tarbiya uslubi va madaniy qadriyatlarga bog'liq. Shunday ekan, oila muhitida farzandlar o'rtasida sog'lom emotsional aloqalarni rivojlantirish – kelajak avlodning ijtimoiy yetukligi va ruhiy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir.

QO'LLANILGAN METODLAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston oilalarida sibling munosabatlarining psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini o'rganish maqsadida **empirik tahlil** usuli qo'llaniladi. Tadqiqot 2024-2025 yillarda Toshkent, Samarqand, Farg'ona viloyatlaridagi 50 ta oila ishtirokida o'tkazildi. Har bir oilada kamida 2 farzand ishtirok etgan bo'lib, respondentlarning Yoshi 8 dan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasidan tanlab olindi.

Tadqiqotda asosiy ma'lumotlarni yig'ish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

So'rovnomma (anketa) metodi – siblinglar o'rtasidagi muloqot sifati, o'zaro qo'llab-quvvatlash va raqobat darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. So'rovnomada Sibling Relationship Questionnaire (SRQ) asosida moslashtirilgan 25 ta savol ishlatildi (Furman & Buhrmester, 1985 modeli asosida).

Kuzatuv metodi – oilaviy muhitda aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi tabiiy muloqot va emotsional reaksiyalarni aniqlash uchun qo'llanildi.

Matematik qayta taqsimlash – to'plangan natijalarni tahlil qilishda ishlatilib, siblinglar o'rtasidagi o'zaro ta'sir intensivligi va hissiy yaqinlik darajasini aniqlashga yordam berdi.

Olingan ma'lumotlar deskriptiv statistika va korrelyatsion tahlil yordamida qayta ishlanib, sibling munosabatlarining turli omillar bilan bog'liqligi (yosh, jins, oiladagi farzandlar soni, ota-onaning ta'lim darajasi) o'rganildi.



Tadqiqot natijalari O'zbekiston oilalarida sibling munosabatlari madaniy jihatdan an'anaviy modelda shakllanishini, biroq zamonaviy urbanizatsiya va raqamli omillar ta'siri bilan bu munosabatlarda o'zgarish tendensiyasi kuzatilayotganini ko'rsatdi. Bu natijalar ilgari o'tkazilgan xorijiy tadqiqotlar bilan qisman mos keladi, biroq o'zbek oilalari uchun milliy o'ziga xoslikni aks ettiruvchi yangi psixologik modelni shakllantiradi.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

O'zbekiston oilalarida sibling (aka-uka, opa-singil) munosabatlarining rivojlanish xususiyatlarini empirik jihatdan tahlil qilish natijasida bir qator muhim qonuniyatlar aniqlangan. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar matematik-statistik tahlil usullari orqali qayta ishlanib, siblinglar o'rtasidagi hissiy yaqinlik, raqobat darajasi, qo'llab-quvvatlash va kommunikativ faollik kabi ko'rsatkichlar o'rganildi.

1. Siblinglar o'rtasidagi hissiy yaqinlik darajasi

Tahlil natijalariga ko'ra, ishtirok etgan oilalarning 68 foizida aka-uka va opa-singillar o'rtasida yuqori darajadagi hissiy yaqinlik mavjudligi aniqlandi. Ushbu holat, asosan, an'anaviy o'zbek oilalarida o'zaro yordam, mehr-muhabbat va birdamlik qadriyatlarini kuchli ekanligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qiluvchi oilalarda siblinglar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasi shahar oilalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ($p < 0.05$).

Bu natijalar Dunn (1988) va Brody (2004) tadqiqotlari bilan qisman mos keladi, biroq O'zbekiston sharoitida bu yaqinlik ko'proq madaniy qadriyatlar bilan belgilanadi. Masalan, "katta ukasiga ota o'rnida", "opasi singliga ona o'rnida" kabi ijtimoiy rollar oilaviy tizimda psixologik ierarxiyani shakllantiradi (Raximov, 2021).

2. Siblinglar o'rtasidagi raqobat va ijtimoiy rollar

Tadqiqotda aniqlanishicha, 24 foiz oilalarda siblinglar o'rtasida raqobat va nizolar kuzatilgan. Bu holat, ayniqsa, farzandlar o'rtasidagi yosh farqi 2–4 yilni tashkil etganda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Raqobat asosan ota-onaning e'tibori, o'quv yutuqlari va moddiy resurslar uchun kechadi. Shu bilan birga, bu raqobatning ijobiy tomoni ham mavjud — u shaxsning o'zini rivojlantirishga undaydi.

Empirik kuzatuv natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-onaning adolatli e'tibor taqsimoti siblinglar o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytiradi. Bu Kramer (2014) tomonidan ilgari surilgan "ijtimoiy laboratoriya" modeli bilan uyg'un: aka-uka va opa-singillar o'zaro raqobat orqali ijtimoiy rollarni sinovdan o'tkazadi, konfliktlarni boshqarishni o'rganadi.

3. Ota-onaning roli va madaniy omillar

Ota-onalarning tarbiya uslubi siblinglar o'rtasidagi muloqot sifati va hissiy muvozanatga bevosita ta'sir etadi. Tadqiqotda ota-onalari avtoritar uslubda tarbiya beradigan oilalarda siblinglar o'rtasida sovuqlik va raqobat darajasi yuqori bo'lgan, demokratik uslubda esa o'zaro yordam va emotsional yaqinlik kuchliroq aniqlangan.

Bu xulosalar Buist va boshqalar (2013) hamda McHale va Crouter (1996) tomonidan o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar bilan uyg'un natijalarni ko'rsatadi. O'zbekiston oilalarida esa, madaniy omil sifatida ota-onaning "katta farzandga ishonch" tamoyili ustuvor bo'lib, bu kichik farzandning hissiy o'zini qadrlash darajasiga ham ta'sir etadi.

4. Raqamli omillar ta'siri



So'nggi yillarda O'zbekistonda internet va mobil texnologiyalar ommalashuvi sibling munosabatlarining yangi shakllarini keltirib chiqargan. Respondentlarning 47 foizi ukasi yoki opasi bilan muloqotni asosan onlayn platformalar (Telegram, Instagram, o'yinlar) orqali amalga oshirishini bildirgan. Bu holat, bir tomondan, hissiy aloqani mustahkamlasa, boshqa tomondan, yuzma-yuz muloqotni qisqartiradi.

Usmonova ta'kidlaganidek, raqamli muloqot sibling yaqinligini saqlashda muhim, ammo u ijtimoiy ko'nikmalarni cheklashi mumkin. Shu bois oilaviy muhitda texnologiyadan muvozanatli foydalanish tavsiya etiladi.

Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oilalarida sibling munosabatlari ko'p jihatdan madaniy qadriyatlar, ota-onaning tarbiya uslubi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan belgilanadi. Aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi ijobiy emotsional aloqalar farzandlarning ijtimoiy yetukligi va psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston oilalarida sibling (aka-uka, opa-singil) munosabatlari oilaviy tizimning barqarorligini ta'minlovchi muhim psixologik va ijtimoiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy jihat shundan iboratki, farzandlar o'rtasidagi o'zaro mehr, muloqot va qo'llab-quvvatlash darajasi nafaqat ularning hissiy barqarorligiga, balki shaxs sifatida kamol topishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Siblinglar o'rtasidagi hissiy yaqinlikning yuqori bo'lishi, ayniqsa, an'anaviy o'zbek oilalarida oilaviy birdamlik va tarbiya qadriyatlarining mustahkamligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, yosh farqi, ota-onaning e'tibor taqsimoti, oilaning iqtisodiy ahvoli va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq omillar bu munosabatlarning turlicha shakllanishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ota-onaning demokratik tarbiya yondashuvi, farzandlar o'rtasidagi adolatli e'tibor taqsimoti va ijobiy muloqot muhiti siblinglar o'rtasidagi nizolarni kamaytiradi hamda ularning o'zaro ishonchini mustahkamlaydi. Aksincha, avtoritar yoki beparvo tarbiya uslublari raqobatni kuchaytirib, hissiy sovuqlikka olib keladi. O'zbekiston oilalarida sibling munosabatlarini yanada sog'lom yo'nalishda rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Ota-onalar uchun psixologik treninglar – farzandlar o'rtasida adolatli e'tibor, mehr va muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish.

2. Ta'lim muassasalarida "oilaviy muloqot" darslari – o'quvchilarni ijtimoiy va hissiy jihatdan moslashuvchan shaxs sifatida shakllantirish uchun oilaviy rollarni tushuntiruvchi dasturlarni ishlab chiqish.

3. Raqamli texnologiyalarni oqilona qo'llash – aka-uka va opa-singillar o'rtasida onlayn muloqotni real ijtimoiy aloqalar bilan muvozanatlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar – sibling munosabatlarini shahar va qishloq oilalari kesimida, shuningdek, farzandlar jinsiy farqlari nuqtai nazaridan solishtirma tahlil qilish.



5. Oilaviy psixologlar faoliyatini kengaytirish – maktablarda va mahallalarda oilaviy konsultatsiya markazlarini tashkil etish orqali nizolarni erta bosqichda hal etish.

Yuqoridagi natijalar va tavsiyalar O'zbekiston jamiyatida sog'lom oilaviy tizimni rivojlantirish, farzandlar o'rtasida ijobiy muloqotni kuchaytirish hamda oilaviy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy va psixologik dasturlarni takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oilada sibling munosabatlarining shaxs shakllanishiga ta'siri katta va murakkab jarayon. O'rtoqliklar bolada ijtimoiy qobiliyatlar, hissiy barqarorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, aka-uka o'rtasidagi ijobiy munosabatlar bolalarda o'zini anglashni va boshqalar bilan munosabatda bo'lishni o'rganishga yordam beradi. Shu sababli, oilaviy o'rtoqlik munosabatlarini ijobiy rivojlantirish bolalarning psixologik rivojlantirish bolalarning planishi va kelajakdagi muvaffaqiyatli shaxslar bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

References:

1. Alfred Adler. *Understanding Human Nature*. New York, 1927.
2. Judy Dunn. *Siblings and Development*. London: Harvard University Press, 1988.
3. Susan McHale & Alan Crouter. *Sibling Relationships and Socialization*, 1996.
4. Katrien Buist. (Buist et.al., 2013) Buist, K.L., Dekovic M., & Prinzie, P (2013) Sibling relationship quality and psychopathology of children and adolescents: A meta-analysis. *Clinical Psychology Review*, 33(1), 97-106
5. Gregory H. Brody. Siblings' direct and indirect contributions to child development. *Current directions in psychological Science*, 13 (3), 124-125.
6. Raximov, B (2021). O'zbekiston oilalarida sibling munosabatlarining psixologik xususiyatlari. *Psixologiya va Ijtimoiy Tadqiqotlar Jurnali*, 4 (2), 45-53.